



**MUMTOZ ASARLARDA ANTROPONIMLAR  
("LAYLI VA MAJNUN" DOSTONI MISOLIDA)**

**Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi,**  
*Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI O'zbek tili va  
adabiyoti ta'lim yo'nalishi talabasi*

**Annotatsiya.** Maqolada Alisher Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidagi antroponimlarning leksik xususiyatlari yoritildi. Dostonning onomastik ko'lami, ya'ni atoqli otlarning qo'llanilish masalalari tahlil etildi.

**Kalit so'zlar:** o'zbek tili, onomastika, antroponimlar, ism, laqab, taxallus, "Layli va Majnun" dostoni.

Uzoq o'tmishta ega bo'lgan tarixiy nomlar xalqning tarixidan xabar beruvchi o'ziga xos darakchilaridir. Atoqli otlar, o'zida lisoniy xususiyatlarni bajarishdan tashqari, muhim va ahamiyatli bo'lgan tarixiy, etnografik, geofizik, etikaviy va hattoki arxeologik ma'lumotlarni ham jam qilgan bo'ladi. Atoqli otlar ajdodlarning avlodlarga qoldirgan buyuk madaniy lisoniy merosdir. Ushbu merosda xalqimizning tarixi, madaniyati, urf-odatlari, ijtimoiy hayoti xotirasi o'z ifodasini topgan. Shu bois keyingi yillarda qadimi davrlarga doir bo'lgan tarixiy nomlarni tiklash va asrashga oid say-harakatlarning yanada kuchayganligi seziladi. Shu jihatdan oliy qadriyat sanalmish tilimizni har tomonlama o'rghanish, uni yanada takomillashtirish va rivojlantirish xalqimizning dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

So'z mukning sultonı -Alisher Navoiyning asarlari o'z davridan bugungu kunga qadar katta qiziqish bilan o'rGANilib kelinmoqda. Navoiy asarlari o'z davri uchun ham, hozirgi davr uchun ham tengsiz va beba ho'lib, ularning har biri adabiyotimiz xazinasining nodir javohirlari sanaladi.

Navoiy asarlari mazmun-mohiyatning chuqurligi, o'ziga xos yo'nalishi bilan ajralib turadi. Navoiy o'z asarlarida onomastik birliklardan o'rinli foydalangan. Alisher Navoiy asarlarining onomastika uchun ahamiyati undagi kishi ismlari, joy nomlari, urug', qabila nomlari, planeta, yulduz nomlari bilangina tugamaydi. Onomastik birliklarning etimologiyasi, semantikasini aniqlash hamda grammatic xususiyatlarini hisobga olishda qadimgi etnonimlar, antroponimlar, o'simlik, hayvonlarning o'sha davrdagi nomlari, toponimlarning grammatic tuzilishiga doir mulohazalar g'oyat katta ahamiyatga egadir. Ayniqsa "Xamsa" dostoniga kiruvchi "Layli va Majnun" dostonida tarixiy, affsonaviy va to'qima ismlardan namunlarni



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 6



uchratishimiz mumkin. Ismlarni keltirish jarayonida antroponimlarning etnografik ma’nosiga alohida urg‘u bergan. Etnografik ma’no aslida biror bir ismnинг yuzaga kelishi uchun asos bo‘lgan ehtiyojni anglatadigan sabab-voqeа va rasm-rusmlar, udumlar, kishilarning nom orqali izhor qiladigan istak va orzulari, tilak va xohishlari haqidagi etnografik ma’lumotlar mazmunidan iboratdir.

Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan ismlarni quyidagi guruhlarga ajratishimiz mumkin:

- 1) real, ya’ni hayotiy shaxslar atoqli oti;
- 2) obrazlarning to‘qima atoqli oti;
- 3) afsonaviy (mifologik) shaxslar atoqli oti.

**1. Real, ya’ni hayotiy shaxslar atoqli oti.** Navoiy asarlarida o‘zi bilan bir davrda yashagan, zamondosh bo‘lgan ko‘plab tarixiy shaxslarning nomlarini keltiradi. Sh.Yoqubov Navoiy “Majolisun nafois” asarida 459 nafar shoirning nomini tilga olganligini qayd etadi.

“Layli va Majnun” dostonida ham bir necha tarixiy shaxslar, ularning hayoti va faoliyati, sarguzashtlari tasvir etiladi. Bular shohlar, viloyat hokimlari, din namoyondalari, ilm-fan, san'at va adabiyot ahillari va boshqa ijtimoiy guruhdagi lavozim va kasbkordagi kishilardir

**Ashraf** – XIV asrning II yarmi va XV asrning boshlarida yashab, ijod qilgan xamsanavis shoir. Uning to‘liq ismi Ashraf ibn Shayx ul-Islom Abu al-Husayn ibn al-Hasan al-Marog‘iy at-Tabriziydir.

Chun etti bu bazmgahg‘a *Ashraf*,  
Bo‘ldi o‘zi xo‘rdig‘a musharraf  
Menkim bu taraf guzor qildim,  
Bu ranjni ixtiyor qildim.

Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasida Ashraf haqida shundan ma'lumotlar berilgan: «Mavlono Ashraf – darveshvash va nomurodsheva kishi erdi. Va kiyiz bo‘rk ustiga qurchuq chirmar erdi. Va el bilan dog‘i omizishi oz erdi. Ko‘prak avqot «Xamsa» tatabbu‘ig‘a sarf qilur erdi, to ul kitobni tugotur tavfiqi topti, voqeан o‘z xurdi xolig‘a ko‘ra yamon bormaydur. Afv fazilatida«Xamsa»sidan bu bayt yaxshi voqe‘ bo‘libturkim:

Ba nazdi kase k-o‘ ba donesh meh ast,  
Zi muchrnm kushi churm baxshi beh ast...



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

Volume: 2 Issue: 6



*Mazmuni: Bilimda ilg'or bo'lgan kishi qoshida gunohkorni o'ldirishdan gunohini kechish yaxshidir.* (Alisher Navoiy, Asarlar, 12-tom, T., 1960, 14-bet).

**Sulton Husayn Boyqaro** – Temur ko'ragon naslidan bo'lib Mirzo Manmur binni Mirzo Boyqaroning o'g'lidir. U 1438 yili tug'ilgan, 1469 yili Hirot taxtiga o'tirib, 37 yil hukmronlik qilgan. Xondamir Sulton Husayn Boyqaroning viloyatlarini obod qilish, binokorlik va dehqonchilik ishlarini rivojlantirish yuzasidan tuzgan rejalar haqida so'zlaydi.

Bor edi shahi sipehr tamkin,  
Ya'niki, muizzi davlatu din.  
Din nusratining alam tirozi,  
Ya'ni **Sulton Husayni** g'ozi

**Abu Hanifa** – Imom A'zam Nu'mon ibn Sobit (699-767) – mashhur imom, Hanafiya mazhabining asoschisi. Abu Hanifa Kufada tug'ilgan. Hammod Ibn Abu Sulaymondan hadis ilmini o'rgangan. U birinchi bo'lib fiqh ilmini farz, sunnat va shart kabi boblarga ajratgan.

Har nuktaki ko'rguzub vuzuhin,  
Shod aylab **Abu Hanifa** ruhin

**Shahzoda Uvays** – Temur Ko'ragon naslidan bo'lgan Sulton Husayn Boyqaroning akasining o'g'li. Navoiy dostonning XXXVII bobida Shahzoda Uvaysni tilga olgan.

To so'zda falak nishonlig' aylay,  
Axtar kibi durfishoiling' aylay.  
Topqach duri bahru la'li koni,  
Shahzoda nisori aylay oni.  
Shahzodai ma'dalatshior ul,  
Yetti ato shohu shahriyor ul.  
Sultoni zamon, **Uvays** ul shoh,  
Kim, charx anga keldi xoki dargoh.

Bu uch baytning mazmuni: «Daryoning durri va konning la'li kabi so'zlarni topgach, ularni shahzodaga bag'ishlayin. U adolatli shahzodadir, uning yetti otasigacha shoh bo'lgandir. Butun koinot, zamona sultoni shahzoda Uvays dargohining tuprog'i hisoblanadi».



# ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

## International scientific journal

**Volume: 2 Issue: 6**



**Uvays-** «*Shu yashin har lahzada Yaman tomondan ko‘rinib, o‘zining o‘tlik sirtmog‘ini tashlar, u – Suhayl yulduzi balqib, Yaman tunini yarqiratganidek edi. Yo‘q-yo‘q, balki Uvays qalbi yolqini qora tunni oydinlashtirmoqda».*

*Shu bilan bir qatorda Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida ko‘plab taxalluslarni ham uchratishimiz mumkin. Jumladan, Xusrav Dehlaviy, Nizomiy, Jomiy, Suhayliy, Navoiy kabi.*

**Navoiy – Alisher Navoiy** (9-fevral 1441-yildan 3-yanvar 1501-yilgacha umr ko‘rgan) – o‘zbek va boshqa turkiy xalqlarning shoiri, mutafakkiri va davlat arbobi.

Qilmay da’viyi xush adoliq,  
Arz ayla, *Navoiyo*, gadoliq.  
Yorab, eshigingda ul gadomen  
Kim, boshtin-ayoqqacha xatomen.

**2. Obrazlarning to‘qima atoqli oti.** Dostondagi obrazlarning to‘qima atoqli otlardan Majnun,Layli, Navfal, Ibn Salom, Zayd, Yusuf, Parvez, Namrud, Jamshid kabi obrazlarni uchratishimiz mumkin.

**Ibn Salom** – arablarning Bani Asad qabilasi boshlig‘i, katta boylik egasi.  
Yo‘lda oni ko‘rdi navjuvone.  
Xayli arab ichra komrone.  
Solim anga barcha aybdin zot,  
Baxt **Ibni Salom** deb anga ot.

Bu ikki baytning mazmuni: «Arab elidagi bir badavlat navqiron yigit uni – Laylini yo‘lda ko‘rib qoldi. Zotida hech qanday nuqsoni yo‘q bu sog‘lom kishini baxt Ibn Salom deb atagan edi».

**Zayd-** Laylining qabiladoshi. Dostonda ikki oshiq-ma’shuqaga xat yetkazib beradi. Zayd E.E.Bertels fikriga ko‘ra, Nizomiy asarining dastlabki nusxasida bo‘lmagan, dostoniga noma'lum muharrirlar tomonidan keyincha kiritilgan. Zayd Nizomiyda kichik bir obraz bo‘lib, asardagi diniy ruhni kuchaytirishga xizmat etadi, Navoiyda esa Layli va Majnun sevgisini, ular xarakterini to‘laqonli chiqishida vositachi obraz sifatida o‘rni muhimligini qayd etadi.

**Farhod** – Sharq xalqlari og‘zaki ijodi va yozma adabiyotida keng tarqalgan obraz, Navoiyning «Farhod va Shirin» dostonida asosiy qahramon. Baytda Navoiy Farhod qismatidagi hijronga ishora qilmoqda.

Tog‘ bag‘rida sel yo‘qki, har tosh,



***Farhod*** firoqidin to‘kar yosh.

**Namrud** – Bobil podshohlaridan birining nomi. Rivoyatlarga ko‘ra, xudolik da’vosini qilganda Ibrohim (Xalil) payg‘ambar unga qarshi chiqqan. Namrud uni o‘tga tashlagan, lekin Ibrohim gunohnsiz bo‘lgani sababli yonmagan ekan.

Yo o‘tqa borurda barq kirdor,

**Namrud** yuziga solib anvor.

Har lahza ayon bo‘lub Yamandin,

Tashlar edi otashin kamandin.

### **3. Afsonaviy (mifologik) shaxslar atoqli oti.**

Dostonda shuningdek afsonaviy shaxslarning atoqli otlarini ham uchratishimiz mumkin. Jibril, Sulaymon, Qorun obrazlari bularga misol bo‘la oladi.

**Qorun** –obrazi behisob boylik sohibi bo‘lgan diniy afsonaviy shaxs. Navoiy o‘zining «Tarixi anbiyo va hukamo» asarida Qorunni Muso payg‘ambar qarindoshlaridan ekani, ilmu fazilatda o‘tkir, ayniqsa, kimyo fanida mohir, qobiliyatli kishi bo‘lganini yozadi. Keyincha, u ko‘p oltin to‘plab, katta boylikka ega bo‘ladi. Xazinasi bilan birga uning xasisligi, imonsizligi osha boradi. U xudoni ham tan olmay qo‘yadi. Musoning uni dinga, e’tiqodga chaqirishiga ham parvo qilmaydi. Natijada Musoning duobadiga uchraydi, tamomi xazinasi, boyligi bilan uni yer yutadi.

Xulosa qilib aytganda, “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan atroponimlar o‘rganishimiz orqali so‘z qo‘llash tarixini mukammalroq yoritishga, so‘zlarning etimologik tarixini o‘rganishga, ismlarning kelib chiqishi jarayondagi voqeahodisalar haqida ma’lumotlarga ega bo‘lish imkonini beradi. Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida qo‘llanilgan atroponimlar vositasida ismlarning faqat lisoniy xususiyatlarini emas, balki, tarixiy va adabiy ildizlarini ham o‘rganishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Karimov A. Navoiy leksikasining bir qatlami. J.O‘TA, 1984. №2,
2. Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi. Nomzodlik diss. avtoreferati. - Toshkent: 1994. - B 6.
3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi, 2008. – B. 14.
4. www.ziyo.com kutubxonasi. Navoiy A. Layli va Majnun. - B. 235.

